

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARGA
ASOSLANGAN INTERFAOL METODLAR

Abdushukurova Muxlisa Foziljon qizi

Guliston davlat pedagogika Instituti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15062422>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilishva amaliyotga joriy etish, dunyo ta'lim tizimining hozirgi taraqqiyot bosqichi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash tajribasi, milliy va tarixiy, mafkuraviy shart - sharoitlarga javob berishi, boshlang'ich sinfo'quvchilarining fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirish, innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi, shuningdek, o'quvchilarining o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lган qiziqish, xohish va istaklarini qo'zg'otish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarining o'zaro ichki yaqinlashuv holatlari innovatsion pedagogik texnologiyalarga asoslangan metodlardan foydalanish samaradorligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, boshlang'ich, klaster, fan, integratsiya, o'qitish, mexanizm, takomillashtirish.

**ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ
ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ**

Аннотация. В данной статье рассматривается активное использование инновационных педагогических технологий в образовательном процессе, повышение эффективности образования, анализ и внедрение, современный этап развития мировой системы образования, опыт использования современных педагогических технологий, их реакция на национально-исторические, идеологические условия, развитие мышления, сознания, мировоззрения младших школьников, превращение их из свободного слушателя в свободного участника, отвечают ли уроки, организованные на основе инновационных педагогических технологий, потребностям учащихся, а также достижение цели - мотивация, основанная на возбуждении у учащихся интереса, стремления и желания освоить учебный материал, а также выделена эффективность использования методов, основанных на инновационных педагогических технологиях.

Ключевые слова: образование, начальное, кластер, предмет, интеграция, обучение, механизм, оптимизация.

INTERACTIVE METHODS BASED ON INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN PRIMARY EDUCATION

Abstract. In this article, the active use of innovative pedagogical technologies in the educational process, increasing the effectiveness of education, analysis and implementation, the current stage of development of the world education system, the experience of using modern pedagogical technologies, their response to national and historical, ideological conditions, the development of the mindset, consciousness, worldviews of primary school students, turning them from a free listener to a free participant, whether lessons organized on the basis of innovative pedagogical technologies meet the needs of students, as well as achievement of the goal is motivation based on arousing students' interest, desire and desire to master the educational materials, and the effectiveness of using methods based on innovative pedagogical technologies is highlighted.

Key words: education, primary, cluster, science, integration, teaching, mechanism, improvement.

Yangi O‘zbekiston rivojiga katta hissa qo‘shayotgan va uning tub o‘zagi hisoblangan ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish maqsadida ayni damda boshlang‘ich ta‘limga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Yurtimizda barpo etilayotgan Uchinchi Renessans davrida boshlang‘ich ta‘limda sifat samaradorligiga erishish va bunda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar faoliyatiga tayanish dolzarb vazifalar sirasiga qo‘shildi.

O‘zbekistonda boshlang‘ch ta‘limni yanada takomillashtirish davri kechmoqda. Ushbu jarayonda faqatgina boshlang‘ich sinfda dars berib kelayotgan o‘qituvchilargina emas,balki bo‘lajak pedagog-o‘qituvchilar ham juda katta,muhim rol o‘ynaydi. Ularda ham kasbiy qiyofani to‘la shakllantirish shart.

Zamonaviy ta‘lim tizimida boshlang‘ich ta‘lim bosqichi o‘quvchilarning kelajakdag‘i akademik muvaffaqiyatlari uchun poydevor vazifasini bajaradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bilim olishga bo‘lgan qiziqishni oshirish va ularning intellektual salohiyatini rivojlantirish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ta‘lim jarayonida an‘anaviy usullar o‘rnini interfaol metodlar egallab bormoqda. Ushbu maqolada innovatsion pedagogik texnologiyalar va ularning boshlang‘ich ta‘limda qo‘llanilishi tahlil qilinadi.

1. Innovatsion pedagogik texnologiyalar tushunchasi va ahamiyati

Innovatsion pedagogik texnologiyalar – bu ta’lim jarayonining sifatini oshirish, o‘quvchilarning faolligini rag‘batlantirish va ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatish maqsadida qo‘llaniladigan yangi ta’lim usullari va vositalaridir. Bu texnologiyalar quyidagi afzallikkarga ega:

- O‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;
- Dars jarayonini interfaol va qiziqarli tashkil etish;
- O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida faol muloqotni yo‘lga qo‘yish;
- O‘quvchilarni bilim olish jarayonida faol ishtirok etishga undash.

Boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish bolalarning yosh xususiyatlari mos bo‘lib, ularning ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va samarali o‘zlashtirishni ta’minlaydi.

2. Interfaol metodlarning mohiyati

Interfaol metodlar – bu o‘quvchilar va o‘qituvchi o‘rtasida faol muloqot va hamkorlikka asoslangan ta’lim usullari bo‘lib, ular bolalarni dars jarayonida faol ishtirok etishga undaydi. Interfaol metodlar quyidagi xususiyatlarga ega:

- O‘quvchilarning dars jarayonida faolligini oshiradi;
- Bilim olishni osonlashtiradi va tushunchalarni chuqur o‘zlashtirishga yordam beradi;
- O‘quvchilarning fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi;
- Jamoaviy ish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Interfaol metodlar yordamida o‘quvchilar faqat bilim olish bilan cheklanmay, balki o‘z bilimlarini amalda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

3. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion interfaol metodlarning turlari va ularning qo‘llanilishi:

3.1. Klaster metodi o‘quvchilarning ma’lum bir mavzu bo‘yicha erkin fikrlashlarini ta’minlovchi grafik organayzer hisoblanadi. Ushbu usul o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘qituvchi doskaga asosiy tushunchani yozadi.

O‘quvchilar shu tushuncha bilan bog‘liq so‘z va g‘oyalarni atrofida yozib chiqadilar.

Guruh bo‘lib ishlash orqali o‘z fikrlarini umumlashtiradilar va yakuniy xulosa chiqaradilar.

O‘quvchilar mavzuni chuqur anglaydilar, fikr yuritish qobiliyatları oshadi.

3.2. “Baliq skeleti” metodi orqali o‘quvchilar mavzuga oid asosiy sabab va natijalarni tahlil qiladilar. O‘qituvchi doskaga “baliq skeleti” chizadi. Bosh qismiga mavzuning asosiy g‘oyasi yoziladi. Tanasi sabablarni, dum qismi esa natijalarni ifodalaydi.

O‘quvchilar guruhlarga bo‘linib, sabab va natijalarni muhokama qiladilar. O‘quvchilarning tahlil qilish va sabab-natija bog‘liqligini tushunish qobiliyati rivojlanadi.

3.3. Rolli o‘yinlar metodi orqali o‘quvchilar o‘rganilgan mavzuga oid qahramonlar roliga kirishadi va sahnalashtirilgan harakatlar orqali bilimlarini mustahkamlaydilar. O‘quvchilarga dars mavzusiga oid qahramon rollari taqsimланади. Ularga topshiriqlar beriladi va muayyan ssenariy asosida sahna ko‘rinishi tayyorланади. O‘quvchilar mazmunni jonlantirib, ifodali tarzda yetkazib beradilar. O‘quvchilarning nutqiy va ijodiy qobiliyatları shakllanadi, dars jarayoni qiziqarli va esda qolarli bo‘ladi.

3.4. Aqliy hujum usuli o‘quvchilarning erkin fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi.

O‘qituvchi mavzu bo‘yicha umumiylar savol beradi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin bayon etadilar. Fikrlar muhokama qilinib, umumiylar xulosa chiqariladi. O‘quvchilar mustaqil fikrlash va tezkor tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

3.5. Multimedia texnologiyalaridan foydalanish bu ta’lim jarayonida audio, video, animatsiya va interaktiv ta’lim dasturlaridan foydalanish.

- Mavzuga oid videoroliklarni namoyish qilish;
- O‘quvchilarga elektron interaktiv o‘yinlar orqali mavzuni mustahkamlash;
- Audio darsliklardan foydalanish;
- O‘quvchilar mavzuni tezroq tushunadilar, eshitish va vizual idrok qilish qobiliyatları rivojlanadi.

Boshlang‘ich ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalarga asoslangan interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi faolligini oshiradi, ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ijodiy yondashuv qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ta’lim jarayoniga zamonaviy metodlarni tatbiq etish natijasida o‘quvchilar mavzularni yanada tez va samarali o‘zlashtiradilar. Shu sababli, boshlang‘ich ta’limda interfaol metodlarni keng qo‘llash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-sonli Farmoni/ <https://lex.uz/docs/5841063>

2. Sh. Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi Xalq Ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 24-aprelda PF-5712-son Farmoni (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019-y).
3. Qosimova K., Matchonov S. G‘ulomova X., Yo‘ldasheva SH., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. -Toshkent, “Nosir”, 2009
4. G‘ulomova, X., &Bakiyeva, H. (2020). O‘QISH DARSLARIDA SHE’RIY ASARLAR MATNI USTIDA ISHLASH. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 582-589.